



<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i04.090>

## LINGVOKOGNITIV TIPOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING FANLARARO MOHIYATI

**Nodira Mansurova**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
f.f.f.d., PhD*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvokognitiv tipologiya nazariyasiga ta’rif berilib, ushbu ta’limot ikki va undan ortiq tillarning kognitiv, yani idrok, fikriy xususiyatlariga tayangan holda tillarning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslash, tasniflashdan iborat. Lingvokognitiv tipologiya hammamiz bilib, o‘rgangan an’anaviy tipologiyadan farqi shundan iboratki, u nafaqat tildagi grammatik strukturalar va leksik birliklarga e’tibor bergan holda o‘rganadi, balki, insonning tilga bo‘lgan tafakkuri, uning hayot davomidagi ma’naviy tajribasi, uning ongli ravishda idrok etish asosida tilda aks etgan tushunish mexanizmlarini o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** terminologiya, lingvokognitiv tipologiya, kognitiv lingvistika, tilshunoslik, termin, terminologiya, lingvistik termin, terminologik tizim.

**Аннотация:** В данной статье даётся определение теории лингвокогнитивной типологии. Данное направление предполагает сопоставление и классификацию сходств и различий между двумя и более языками на основе их когнитивных, то есть перцептивных и мыслительных особенностей. В отличие от традиционной типологии, которая нам хорошо известна, лингвокогнитивная типология изучает не только грамматические структуры и лексические единицы языка, но и особенности языкового мышления человека, его духовный опыт, накопленный в течение жизни, а также механизмы понимания, отражённые в языке на основе осознанного восприятия.

**Ключевые слова:** терминология, лингвокогнитивная типология, когнитивная лингвистика, языкознание, термин, лингвистический термин, терминологическая система.

**Abstract:** This article provides a definition of the theory of linguocognitive typology. This approach involves comparing and classifying the similarities and differences between two or more languages based on their cognitive—that is, perceptual and mental—features. Unlike

traditional typology, which is commonly studied, linguocognitive typology examines not only grammatical structures and lexical units of a language, but also the nature of human linguistic thinking, the spiritual experience accumulated throughout life, and the mechanisms of understanding reflected in language through conscious perception.

**Keywords:** terminology, linguocognitive typology, cognitive linguistics, linguistics, term, linguistic term, terminological system.

**KIRISH.** Tadqiqotda qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun tilshunoslik, terminologiya, tipologiya va kognitiv lingvistikaning asosli ishlab chiqilgan tahlillaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kognitiv lingvistika va lingvistik tipologiya o‘zaro bog‘liq bo‘lgan hamda oxirgi yillarda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ikkita alohida tadqiqot sohasidir. Kognitiv lingvistika til va bilish jarayonidagi murakkab munosabatlarni hamda bizning aqlimiz tilning tuzilishi va qo‘llanilishiga qanday ta’sir qilishi haqida o‘rganadi. Lingvistik tipologiya fanining asosiy maqsadi esa tillararo tarkibiy o‘xshash va farqlarni tizimli o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Ushbu ikki fanning yaqinlashishi lingvokognitiv tipologiya deb nomlanuvchi yangi tadqiqot sohasini keltirib chiqardi. Kognitiv lingvistika sohasining tipologiya bilan o‘zaro integratsiya jarayoni 1990-yillarda boshlangan bo‘lib, ushbu fan ustida tadqiqot olib boruvchi olimlar kognitiv jarayonlar tillarda kuzatilgan tipologik o‘zgarishlarga qanday ta’sir qilishini o‘rganishgan<sup>124</sup>. Xorij olimlaridan Jorj Lakoff, Ronald Langaker va Leonard Talmi kabi tadqiqotchilar tilni modulli, qoidalarga asoslangan tizim sifatidagi o‘rganish fikriga qarshi chiqdilar va aksincha ular lingvistik tuzilmalarni shakllantirishda bilish, idrok etishning ahamiyati ustida ko‘proq nazariy fikrlar berishgan. Kognitiv lingvistika tilning mustaqil moduli emasligini, balki inson bilishida, idrok etishga katta ahamiyat berishini ta’kidlaydi. Bu nazariya lingvistik tuzilmalar idrok, diqqat va xotira kabi umumiy kognitiv jarayonlar tomonidan shakllantirilishini ta’kidlaydi. Kognitiv lingvistikaning lingvistik tipologiyaga aloqadorligi uning til xilma-xilligining kognitiv asoslarini tushunish uchun asos yaratish qobiliyatidadir.

**ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA.** Hozirgi kunda tilshunoslik mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv sohalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, birinchidan, tilshunoslikni inson ongi, tafakkur jarayonida yuzaga keladigan muammolari bilan shug‘ullanuvchi kognitologiya fanining tarmog‘iga tegishli bo‘lsa, ikkinchidan, tilshunoslikning o‘zini ham yana yangi bir soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitildi.

---

<sup>124</sup> <https://www.numberanalytics.com/blog/cognitive-linguistics-in-typology-guide>

Terminologiya zamonaviy ilmiy bilimlarning maxsus, jadal rivojlanayotgan sohasi bo‘lib, u tilshunoslik, axborot nazariyasi, mantiq, falsafa hamda bilim va faoliyatning maxsus sohalari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biz fanlararo fan sifatida qabul qilishimiz mumkin. Uni o‘rganishning asosiy predmeti terminlar va terminologik tizimlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlaridir <sup>125</sup>. Terminologiyaning fan sifatida boshlanishiga avstriyalik olim Evgen Vyusterning xorijiy ilmiy an‘analardagi asarlari va D.S.Lotte, E.K. Dresen, keyinchalik G.O.Vinokur, A.A. Reformatskiy, B.N. Golovin kabi olimlarning ilmiy asarlarida ham kuzatamiz.

Ma‘lumki, biz atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarni nutqimiz, til orqali qabul qilamiz, ularni idrok etib etamiz. Til yordamida biz nafaqat boshqa boshqa millat vakillari bilan muloqot qilamiz, balki ularning madaniyati, yashash tarzi haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganishimizga, fikrlash, idrok etish imkon yaratadi. Tilshunoslikda til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutk, til va madaniyatlararo muloqot munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bir qator tilshunos olimlar Dj.Lakoff, M.Djonson, V.fon Gumbol’dt, B.Uorf, E.Sepir, A.A.Potebnya, Levi-Stross, F.I.Buslaev, Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunova, V.N. Teliya, V.V. Vorobyev Dj. Ostin, Dj.Serl, Dj.Lich, G. Grays, D.Ashurova, A.Abdulazizov, A.Mamatov, U.Yusupov, Sh.Safarovlar tilshunoslik sohasiga o‘zlarining nazariy boyliklari bilan unutilmas xissa qo‘shganlar. Shubhasiz inson ongi yillar davomida rivojlanib borgan sari, uning dunyo qarashi, fikrlash doirasi ham rivojlanib, kengayib boraveradi. Xayotimizning har bir jabhasi rivojlanib borgan sari tilshunoslik sohasida ham jadallik bilan yangi yo‘nalishlar, ilmiy-nazariy karashlar paydo bo‘layapti. Shu bilan bir qatorda, tilshunoslikda psixolingvistika, sociolingvistika, etnolingvistika, mentalingvistika, neyrolingvistika, kognitiv lingvistika kabi yangi yo‘nalishlar vujudga kela boshladi. Kognitiv tilshunoslik kognitologiya asosida vujudga kelib, tilning kognitiv nuqtai nazardan o‘rganadi. Sir emaski, kognisiya bu olamni idrok etishda, inson bilimlarining ongda ifoda etilinishi va shakllanib borish jarayoni hisoblanadi. U.K. Yusupovning nazariy fikrlariga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik chog‘ishtirma tilshunoslikning vazifalarini kengaytirish bilan bir qatorda, ikki tildagi konseptlar va ularning ifodalanishini qiyoslash va qiyoslanayotgan tillar buyicha olamning lisoniy manzaralarini qiyoslash, ikki millatdagi lisoniy ongni qiyoslash, ikki tildagi birliklarning madaniyatni ifoda etuvchi xususiyatlarini ochib berish kabi vazifalarni tahlil qiladi<sup>126</sup>.

<sup>125</sup> Голованова Е.И. Когнитивное терминоведение: Проблематика, инструментарий, Направления и перспективы развития // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 24 (315). Филология. Искусствоведение. Вып. 82. С. 13–18.

<sup>126</sup> Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. -Т.: Фан, 2007. - С. 123

Qayd etilganidek, terminolgiya tadqiqotchilar tomonidan turlicha o‘rganib chiqilgan. E.I.Golovanova terminologiya - bu tilshunoslik, fan, axborot nazariyasi, mantiq, falsafa va bilim va faoliyatning maxsus sohalarining butun majmuasi chorrahasida joylashgan zamonaviy ilmiy bilimlarning maxsus, jadal rivojlanayotgan sohasi deb hisoblaydi<sup>127</sup>.

O.Axmanovanning ta’kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o‘z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya’ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so‘ng tan olinadi.

Terminologiya fanining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida ilk faoliyati 1931 yili D.S.Lotting texnik terminologiyani birlashtirish va standartlashtirish muammolariga bag‘ishlangan birinchi kontseptual maqolasi nashr etilishi bilan bog‘liq<sup>128</sup>. Rus tilshunos olimlari G. O. Vinokur va A. A. Reformatskiylar ham mahalliy terminologik maktab va terminologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixiga katta hissa qo‘shdilar. Terminologiya o‘zining eng katta rivojlanishini o‘tgan asrning 60-70-yillarida oldi. Aynan o‘sha paytda atamalar va terminologiya tizimlarini o‘rganishda bir qator yo‘nalishlar paydo bo‘ldi: mantiqiy, onomasiologik, qiyosiy, funktsional, amaliy (terminografik) va boshqalar.

**NATIJA VA MUHOKAMALAR.** XXI asrning oxirgi o‘n yilliklarida jahon tilshunosligida umumiy, xususiy va sohaviy terminologiya masalalariga bag‘ishlangan ko‘pdan ko‘p tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu o‘rinda biz mana shu oxirgi o‘n yilliklarda olib borilgan shu izlanishlarning asosiy yo‘nalishlarini sanab o‘tishimiz mumkin. Terminshunoslik sohasida izlanish olib borgan tilshunoslarning katta guruhi turli tillarda soha terminlarining til lug‘at tarkibidagi o‘rni va funktsional – stilistik xususiyatlari haqida izlanish olib borganlar<sup>129</sup>.

---

<sup>127</sup> Е. И. Голованова. Когнитивное терминоведение: проблематика, инструментарий, направления и перспективы развития. - Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 24 (315). Филология. Искусствоведение. Вып. 82. С. 13–18.

<sup>128</sup> Лотте Д. С. Очередные задачи научно-технической терминологии. М.: Наука, 1931. 158 с

<sup>129</sup> Лейчик В.М. Номенклатура – промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж, 1974. – Б. 56 - 61; Антонова М.В., Лейчик В.М. Роль концептуальной структуры в формировании отраслевой терминологии//Термины и их функционирование. - М.:1987. -129 с.; Крылов А.И. Термин и контекст//Языковые единицы и контекст.-Л.:1973.-167 с.; Кубрякова Е.С.Что такое словообразование?.-М.: 1965.-279 с.; Лейчик В.М. Элементы терминоведической теории текста //Текст восприятие, информация, интерпретация. М.: 2002. –153 с.; Мешков О.Д. Некоторые актуальные проблемы английского словосложения//Основосложения и полуаффиксация в научном стиле и литературной норме. -М.:1982.-158 с.; Madvaliev A. O‘zbek terminologiyasida dubletlik masalasi //O‘zbek tili va adabiyoti. 1982. № 3.-123 b.; Ismailov G‘.M. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Filol. fan. nomz, ...dis.avtoref. –Toshkent. O‘zR FA TAI, 2011. – 26 b.; Найвелът Е.М. Термин, терминополь, терминосистема//Лингвистика и проблемы стиля. ЛГПИ.им.А.И.Герцена.1977. - 183 с.; Реформатский А. Мысли о терминологии/ Современные проблемы русской терминологии. -М.: 1966. - 297 с.; Реформатский А.А. Введение в языкознание. - М.: 1967.- 322 с.; Husanov N., Mirahmedova Z. Iqtisodiyot atamalari va ish yuritish.-T.: 2005.-203 b.; Касымова М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Тошкент, 1985. – С.13.

Tilshunoslik nazariyasiga bag‘ishlangan ayrim ishlarda terminlarning shakli va mazmuniy strukturalarini tillar va sohalararo o‘xshashligi va farqlanishi masalalari ustida tadqiqot ishlari olib borilgan<sup>130</sup>.

Terminshunoslarning yana bir katta guruhi o‘z tadqiqotlarida asosiy e‘tiborni maxsus maqsadlarga xizmat qiladigan soha terminlarining funksional xususiyatlariga qaratganlar<sup>131</sup>.

Yana bir guruh tilshunoslar terminotizim va tillarda terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan yillar davomida tahlillar olib borganlar<sup>132</sup>.

Bulardan tashqari ayrim tilshunoslar tillararo terminlar tizimini umumnazariy va amaliy jihatlarini chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida qiyosiy o‘rganish va ularni qiyosiy tasniflash masalasiga katta e‘tibor qaratganlar<sup>133</sup>.

Terminologiyaning nazariy va amaliy tomonlari bilan nafaqat tilshunoslar, balki aniq fanlar bo‘yicha mutaxassislar ham shug‘ullangan. Bunga qaramasdan, bugungi kunda termin tushunchasi tilshunoslik yoki biron fan sohasiga tegishli ekanligi haqida aniq ma‘lumotlar mavjud emas. Shuning uchun, termin va tushuncha o‘rtasida aniq farqli chegara yo‘q.

Ma‘lumki, hatto bir lingvistik termin bir nechta ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Buning sababi shundaki, har bir termin bir nechta lingvistik maktab va yo‘nalishlar tomonidan turlicha tavsiflangan. Ba‘zan bir terminga turli xil talqinlarni berishgan. Shuning uchun bir lingvistik hodisaga munosabat bildirishimizdan oldin, uning dastlabki talqiniga tayanamiz. Bu hatto matematiklarga xos yondashuv. Bundan kelib chiqadiki, terminlarni tartibga solish uchun, birinchi navbatda, tushunchalarning aniq chegaralarini belgilash zarur.

<sup>130</sup> Ermatov I.R. O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. Alimuradov O.A., Gorbunova N.N. Основные синтаксические словообразовательные модели, реализуемые в англоязычной терминологии менеджмента "Известия вузов. Серия «Гуманитарные науки» 5 (2) 95-101; Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: УРСС, 2003. – С.5; Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка. Проблемы структурной лингвистики. – М., 1988. – 113 с.

<sup>131</sup> Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent, 2019 -59 b.; Кобрин Р.Ю., Антонова М.В. Терминологические системы и их когнитивные модели: очерки научно-технической лексикографии. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского ун-та, 2002. – С.54; Abdullayeva Sh.N. G‘aznachilik sohasida qo‘llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz, o‘zbek, rus tillari misolida). – PhD ilmiy darajasini .... diss. – Toshkent, 2018. – 17 b.

<sup>132</sup> Dadaboyev H.O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi.- Toshkent - 2019 b- 13-18; Бейсембаева Г.З. Диахронный аспект формирования и становления терминосистемы электроэнергетики // Вестник ЕНУ им. Гумилева Л.Н. Серия гуманитарных наук. – 2017. – № (112). – С.54; Гринев С.В. Введение в терминоведение. – Москва: Московский лицей, 1993. – С. 188; Гринев С.В. Введение в терминоведение. – Москва: Московский лицей, 1993. – С. 188; Манерко Л.А. Истоки и основания когнитивно-коммуникативного терминоведения // Лексикология. Терминоведение. Стилистика: сб. науч. тр., посв. юбилею В.М. Лейчика– М.: Рязань, 2003. – С.124-125; Abdurahmonov G‘. Terminologiya muammolari //O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: Birinchi Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Fan, 1986. – 136 b.

<sup>133</sup> Paluanova X.D. Ekologik terminlarning derivatsion-semantik xususiyatlari (o‘zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tillari misolida). Filol.fan. dokt. (DS) diss. avtoref. – T., 2016. – 88 b.; Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. –М.: Наука,1982. -147 с.; Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики: Общее языкознание. Социоллингвистика: Словарь–Справочник Назрань: ООО «Пилигрим», 2011. – 280 с.; Прошина А.А. Моделирование двуязычного словаря-тезауруса по экономике: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2008. –23 с.; Мельников Г.П. Основы терминоведения. – М.: Изд-во ун-та дружбы народов, 1991. – 324 с.

Har qanday fanning shakllanishi va rivojini terminlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tilshunoslik turli soha terminlarini tilning tabiati va qonun-qoidalariga mos ravishda tartibga soladi, unifikatsiya qiladi. Shu bois har doim fanda terminologik va leksikologik ishlarga katta zaruriyat, tabiiy ehtiyoj seziladi. Chunonchi, o‘tgan asrning 30–40-yillarida o‘zbek ilmiy terminologiyasini to‘plash, tadqiq qilishning ilmiy me‘yorlarini ishlab chiqishga harakat qilingani kuzatiladi. S.Nazarov<sup>134</sup>, U.Tursunov<sup>135</sup>, S.Ibrohimov<sup>136</sup>, Oybek<sup>137</sup>, Qori Niyozov<sup>138</sup>, E.Musin<sup>139</sup>, M.Solihov<sup>140</sup>, P.Nishonov<sup>141</sup>, S.Usmonov<sup>142</sup>, A.Sobirov<sup>143</sup>, A.Hojiyev<sup>144</sup> va A.Nurmonovlar<sup>145</sup> yozgan risola va maqolalar ushbu harakatning yorqin misolidir. Dunyo tilshunosligida termin lingvistik jihatdan T.V.Shetle, B.N.Raximberdiyev, A.T.Xudoyberganova, O.V.Dovbish, O.V.Baran, N.V.Gavrilova, O.A.Pokrovskaya, M.K.Yumatova, N.V.Moryaxina, I.V.Skvorsova, Ye.N.Lotka singari tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan<sup>146</sup>

<sup>134</sup> Nazarov S. Istiloh masalasi// Til – imlo masalalari. – Toshkent-Samarqand. 1929. - 46b.

<sup>135</sup> Tursunov U. O‘zbek terminologiyasi masalalari. - Tashkent. 1933. - 21 b.

<sup>136</sup> Ibrohimov S. O‘zbek tili terminologiyasi masalasiga doir. Til va termin masalalari// Qurilish.-1931. 3-son. -69 b.

<sup>137</sup> Oybek. Falsafa terminlari ustida bir qancha so‘z //Kitob va inqilob. – 1933. 1-son B 58.

<sup>138</sup> Кары-Ниязов Т.Н. История создания узбекской математической терминологии//Материалы к первому съезду ученых Узбекистана. – Ташкент, 1937. - Б 35.

<sup>139</sup> Musin E. Falsafa terminlari // Kitob va inqilob. Toshkent. 1932. 2-son. B 112.

<sup>140</sup> Solihov M. Adabiy til va istiloh // Til - imlo masalalari. – Toshkent–Samarqand, 1929. B 152.

<sup>141</sup> Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol.fanlari nomzodi...dis. avtoref.- T.: 2009. - 26 b.

<sup>142</sup> Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. - T.: 2007. - 233 b.

<sup>143</sup> Sobirov A.Sh. O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish: filol.fan.dok...diss. –Toshkent, 2005, – B.4.

<sup>144</sup> Hojiyev A., Nurmonov A va b. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.336.

<sup>145</sup> Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.11.

<sup>146</sup> Шетле Т.В. Англоязычная терминология банковского дела в языковой системе и речевой практике: дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2010; Рaxимбердиев Б.Н. Эволюция семантики экономической терминологии русского языка в XX веке: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2004; Худойбергanova A.T. Принципы построения переводного идеографического словаря банковской терминологии (на материале русского, английского и казахского языков: автореферат дисс...канд.филол.наук. – Алматы, 2003; Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы её перевода на русский язык: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2003; Баран О.В. Сопоставление экономических терминосистем во французском и русском языках в аспекте современной неологии: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2005; Гаврилова Н.В.Деловая терминология международной экономики во французском, английском и русском языках в тезаурусном аспекте: дисс...канд.филол.наук. – Екатеринбург, 2009; Покровская О.А. Украинская терминология рыночных отношений: дисс...канд.филол.наук. – Харьков, 1996; Юматова М.К. Экономическая терминология в татарском литературном языке: дисс...канд.филол.наук. – Казань, 2007; Моряхина Н.В. Формирование и функционирование терминологии менеджмента в русском языке: дисс...канд.филол.наук. – Казань, 2008; Скворцова И.В. Особенности экономической терминологии современного арабского языка: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2008; Лотка Е.Н. Англоязычная терминология финансово-экономических взаимоотношений: дисс...канд.филол.наук. – Киев, 2010.

XX asr ohirlariga kelib terminologiya sohasiga yangi mustaqil yo‘nalish sifatida kognitiv deb nomlangan yangi mustaqil yo‘nalishi paydo bo‘ldi. Ilk bor "Kognitiv terminologiya" termini 1998 yilda birinchi marta foydalana boshladi. S. V. Grinev tomonidan yozilgan "Terminologiya atamalarining tarixiy tizimlashtirilgan lug‘ati"da, va "Ilmiy-texnik terminologiya" kabi asarlarida "Kognitiv terminologiya" termini haqida yetakchilardan bo‘lib to‘xtalib o‘tgan. Keyinchalik esa V. M. Leychik, V. F. Novodranovlar kabi tadqiqotchilar ham o‘z asarlarida ko‘pgina ilmiy fikrlar berib o‘tishgan<sup>147</sup>.

E.I.Golovanova fikriga ko‘ra, u kognitiv terminologiyaning mustaqil ilmiy tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllanishiga kognitivizmning ilmiy g‘oyalarini tarqatish, bilimlarning kognitiv-diskursiv paradigmasini shakllantirish, terminologiya sohasida adekvat tadqiqot usullari, izohli tushunchalar va tushuntirish nazariyalarini talab qiladigan sabablar bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Kognitiv terminologiyasida vujudga keladigan asosiy muammolarga asosan terminologiya tizimlari va ular orqali birlashadigan boshqa sohalar o‘rtasidagi munosabatlar sabab bo‘ladi.

Terminologiya sohasining asosiy vazifalari termin va u orqali ifoda etiladigan tushunchalarni tahlil qilishdan iborat bo‘lsa, kognitiv yo‘nalish terminologiyani keng miqyosda madaniy kontekstlarda terminlar va terminologik tizimlarni o‘rganish uchun keng fanlararo tadqiqot manbalardan foydalanish imkonini berdi.

**XULOSA.** Shunday qilib, S. V. Grinev kognitiv terminologiyani terminologik tadqiqotlarning eng istiqbolli yo‘nalishlari qatoriga kiritib, uning "nafaqat ilmiy bilimlarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish uchun, balki butun insoniyat madaniyati va tsivilizatsiyasining rivojlanish yo‘llarini o‘rganish uchun" muhimligini ta’kidladi.<sup>148</sup>

Bugungi kunda terminologiya fani orqali biz ilmiy bilimlarni nafaqat nazariy tavsiflashga, balki kundalik hayotimizdagi va mavhum-mantiqiy bilimlar, dunyoning sodda va ilmiy suratlari o‘rtasidagi ob‘ektiv mavjud munosabatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shu sababli, V.M.Leychik nazariyalariga tayanadigan bo‘lsak, kognitiv terminologiya fanda alohida soha emas, balki ushbu fanlararo fan rivojlanishining tabiiy bosqichi ekanligini ta’kidlash maqsadga muvofiq deb hisoblash maqsadga muvofiq. Sh.Safarovning nazariyasiga ko‘ra terminologiya sohasida kognitiv yondashuv hozirgi jadal rivojlanib kelayotgan ilm-fanda maxsus yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish

<sup>147 147</sup> Голованова Е.И. Когнитивное терминоведение: Проблематика, инструментарий, Направления и перспективы развития // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 24 (315). Филология. Искусствоведение. Вып. 82. С. 13–18.

<sup>148</sup> Гринев С.В. Терминоведение на пороге третьего тысячелетия // Научно-техническая терминология. М., 2000. Вып. 1. С. 31–34.

bosqichlarini tahlil qilish imkonini beradi hamda jamiyatning kognitiv-kommunikativ ehtiyojlarini ochishga imkon beradi deb ta’kidlaydi.<sup>149</sup>

Ta’kidlab o‘tganimizdek, kognitologiya turli fanlar chorrahasida vujudga kelgan fan bo‘lib, uning tadqiqot sohasi «bilimni to‘plash va qo‘llash usullarini tadqiq qilish» sifatida belgilanadi (The Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology 1990). Amerikalik psixolog H. Gardnerning fikriga ko‘ra kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun’iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo‘llanishi muammolari yechimini izlash bilan band bo‘lishini qayd qilgan edi (Gardner 1987).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Dadaboyev H.O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi.- Toshkent - 2019 b- 13-18;
2. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent, 2019 -59 b;
3. Ermatov I.R. O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019;
4. Hojiyev A., Nurmonov A va b. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.336;
1. Ibrohimov S. O‘zbek tili terminologiyasi masalasiga doir. Til va termin masalalari// Qurilish.-1931. 3-son. -69 b.;
2. Nishonov P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol.fanlari nomzodi...dis. avtoref.– T.: 2009. – 26 b.;
3. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.11.;
4. Горбунова Н.Н. Основные синтаксические Слово образовательные модели, реализуемые В англоязычной терминологии менеджмента "Известиявузов. Серия «Гуманитарные науки» 5 (2) 95-101;
5. Касимова М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Тошкент, 1985. – С.13.
6. Лейчик В.М. Номенклатура – промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж, 1974. – Б. 56 - 61;

---

<sup>149</sup> Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax:Sangzor nashriyoti,2006.-92b.